

**DALVARZINTEPA — KUSHONLAR DAVRINING YIRIK SHAHRI VA
O'ZBEKISTONNING BEBAHO MADANIY YODGORLIGI**

Poyonova Muhayyo¹

¹ “Termiz” davlat muzey-qo‘riqxonasi Rassom ta ‘mirlovchisi

**MAQOLA
MALUMOTI**

MAQOLA TARIXI:

Received: 11.06.2025

Revised: 12.06.2025

Accepted: 13.06.2025

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqolada Surxondaryo viloyatida joylashgan qadimiy Dalvarzintepa shahri arxeologik, tarixiy va madaniy jihatdan o‘rganiladi. Kushonlar imperiyasi davrida yirik iqtisodiy, madaniy va diniy markaz bo‘lgan ushbu shahar O‘zbekiston hududidagi eng muhim qadimiy manzillardan biri sifatida qaraladi. Maqolada shaharning tuzilishi, topilmalar, Buddaviylik izlari hamda arxeologik izlanishlarning ilmiy natijalari yoritiladi.

KALIT SO’ZLAR:

*Dalvarzintepa,
Kushonlar davri,
arxeologiya, Buddaviylik,
oltin xazina, O‘zbekiston
yodgorliklari.*

KIRISH. O‘zbekistonning janubida, Surxondaryo viloyatida joylashgan Dalvarzintepa shahri Markaziy Osiyo tarixida alohida o‘rin egallaydi. Bu shahar miloddan avvalgi II asrdan boshlab milodiy III asrgacha faoliyat yuritgan yirik markazlardan biri bo‘lgan. Ayniqsa, Kushonlar imperiyasi davrida Dalvarzintepa yirik siyosiy, iqtisodiy va diniy markaz sifatida shakllangan. Tarixiy manbalar va arxeologik topilmalar ushbu hududning madaniy taraqqiyot markazi bo‘lganligini tasdiqlaydi.

Dalvarzintepa Surxondaryo viloyatining Jarqo‘rg‘on tumanida joylashgan bo‘lib, 20-asrning 50–60-yillarida akademik Ya.Gulyamov boshchiligidida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida kashf etilgan. Shahar hududi 100 gektardan ortiq maydonni egallab, ichki va tashqi shaharlarga bo‘lingan. Bu yerda turli davrlarga oid binolar, ibodatxonalar, ustaxonalar, turar-joylar aniqlangan.

Kushonlar imperiyasi (milodiy I–III asrlar) davrida Dalvarzintepa muhim harbiy-strategik va savdo markazlaridan biri sifatida faoliyat yuritgan. Shahar Buyuk Ipak yo‘li yoqasida joylashgani sababli, u orqali Hindiston, Xitoy va Erondan bozor tovarlari o‘tgan. Arxeologik topilmalar orasida Hind-Buddaviy san’ati, Rim tangalari va mahalliy

hunarmandchilik mahsulotlari uchrashi bu yerda keng ko‘lamli savdo aloqalari bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Dalvarzintepadan topilgan eng muhim arxeologik topilmalar orasida milodiy I-II asrlarga oid oltin zargarlik buyumlari, tangalar, keramika, haykallar va devoriy bezaklar alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, 1972-yilda topilgan va “Dalvarzin xazinasi” nomi bilan mashhur bo‘lgan 36 kilogrammga yaqin oltin buyumlar orasida ayollar taqinchoqlari, tangalar, haykalchalar bor.

Ushbu xazinada mahalliy va xorijiy (yunon, hind, fors) madaniyat unsurlarining uyg‘unlashganini ko‘rish mumkin. Bu esa Kushonlar davrida san’at va hunarmandchilikning yuksak darajada bo‘lganligini isbotlaydi.

Dalvarzintepada Buddaviylik dini keng tarqalgan bo‘lib, bu yerda Buddha ibodatxonalari va stupalar topilgan. Qazilmalarda Buddha haykallari, diniy devoriy tasvirlar va diniy marosimlarga oid ashyolar aniqlangan. Bu Dalvarzintepaning Kushonlar davrida Buddaviylikning muhim markazi bo‘lganligini ko‘rsatadi. Shahar Buddaviy missionerlik markazi sifatida ham tanilgan.

Dalvarzintepa qadimi O‘zbekiston madaniyatining boy tarixini o‘zida mujassam etgan nodir obidadir. Bu yodgorlik orqali nafaqat Kushonlar davrining siyosiy va iqtisodiy hayoti, balki diniy e’tiqod, san’at, urbanizatsiya jarayonlari ham chuqur o‘rganiladi. Shahar hozirgi kunda ilmiy va turistik markaz sifatida alohida qiziqish uyg‘otmoqda.

Xulosa:

Dalvarzintepa — nafaqat Kushonlar imperiyasining yirik shahri, balki O‘zbekiston hududidagi beباho madaniy yodgorlik hisoblanadi. Undan topilgan arxeologik materiallar orqali qadimgi O‘zbekiston tarixiga oid yangi bilimlar hosil qilinmoqda. Dalvarzintepaning har tomonlama ilmiy o‘rganilishi va saqlanishi O‘zbekistonning madaniy merosini asrashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gulyamov Ya.G. – Dalvarzintepa. Kushonlar davrining yodgorligi, Toshkent, 1978.
2. Abdullaev K. – Surxondaryo – tarix va arxeologiya, Termiz, 2009.
3. Pugachenkova G.A. – Iskusstvo Kushanskoy epoxi, Moskva, 1971.
4. UNESCO – Central Asian Archaeological Heritage on the Silk Road, 2021